



## ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA RUHIY TAHLIL MAHORATI (Jasur Kengboyevning "G‘urbatxona" hikoyasi misolida)

**Xo‘shvaqtova Nazira**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU  
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti  
yo‘nalishi 401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iste’dodli yozuvchi Jasur Kengboyevning “G‘urbatxona” hikoyasi badiiy tahlil markaziga olingan. Muallifning inson ruhiyatini tasvirlashdagi o‘ziga xos uslubi, personajlar psixologiyasining ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi tadqiq etiladi. Shuningdek, hikoyadagi “g‘urbat” tushunchasining falsafiy va ramziy ma‘nolari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Jasur Kengboyev, “G‘urbatxona”, hikoyachilik, psixologizm, badiiy detal, ramziylik, inson va yolg‘izlik.

O‘zbek adabiyotida ruhiy tahlil (psixologizm) ildizlari Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va keyinchalik Abdulla Qahhor ijodiga borib taqaladi. Biroq, XX asrning 80-90-yillaridan boshlab Nazar Eshonqul, Shoyim Bo‘tayev kabi yozuvchilar ijodida psixologizm yangi bosqichga - inson ongostidagi evrilishlarni tasvirlash darajasiga ko‘tarildi. Bugungi o‘zbek nasri janrlar uyg‘unligi va uslubiy rang-baranglik davrini boshidan kechirmoqda. Ayniqsa, hikoya janrida voqelikni shunchaki bayon qilishdan voz kechib, inson ruhiyati, ichki kechinmalari va tafakkur jarayonlarini badiiy tahlil etishga intilish kuchaymoqda.

Bu borada yosh va umidli yozuvchi Jasur Kengboyevning ijodi alohida e‘tiborga molik. Shoir va munaqqid Shodmonqul Salom Jasur Kengboyev hikoyalariga to‘xtalib: “Jasur Kengboyevning hikoyalarini o‘qidim. Tushunganim: hayotda ro‘y bermaydigan, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan gap, ammo chin gap. Bu miqti, ramziy hikoyadagi ko‘ngil og‘riqlarini, yurak zabtini, g‘ussali istehzoni, o‘kinch – u umidni qaysi tilda o‘qisak ham o‘z izini qoldiradi.<sup>1</sup>”

Jasur Kengboyev hikoyalarida tashqi konfliktdan ko‘ra, ichki konflikt – insonning o‘z - o‘zi bilan kurashi ustuvorligini ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchining “G‘urbatxona” hikoyasi shunchaki bir maskan yoki muhit tavsifi emas, balki inson ichki olamidagi begonalashuv va iztirobning badiiy in‘ikosidir. Hikoya sarlavhasi ham ramziy ma‘noga ega. “G‘urbatxona” bu faqatgina qarovsiz qolgan uy emas, balki qahramonning e‘tiborsizlik va tushunilmaslikdan zada bo‘lgan qalbi ramzidir. Hikoyada

<sup>1</sup> "Xurshid Davron kutubxonasi" elektron portali (kh-davron.uz), 2014-yil 18-noyabr.

“G‘urbatxona” tushunchasi ikki xil ma’noda keladi: moddiy (eski, kimsasiz joy) va ma’naviy (ruhiy yolg‘izlik).

Asar qahramonining kechinmalari orqali muallif zamonaviy jamiyatdagi insonning o‘zligi bilan yuzma-yuz qolish fojiasini chizadi. Hikoyaning tili nihoyatda shirali, ammo unda mahzunlik ustuvor. Bu mahzunlik — umidsizlik emas, balki insoniy tuyg‘ularga qaytishga chorlovdur.

Hikoyaning epigrafi ham e’tiborimizni tortadi.

Yoz chillasida ho‘kiz o‘libdi,

Qish chillasida arpa gullabdi. (Maqol)

Bilamizki, epigraflar hikoyaning yoki asarning markaziy g‘oyasini ochish uchun xizmat qiladi. Epigraf mantiqsiz va tartibsiz, ya’ni yozda ho‘kiz o‘lishi (issiqlikda hayvonning nobud bo‘lishi kamligi) yoki qishda arpa gullashi tabiat qonuniyatiga ziddir. Bu xalq maqoli hayotda ham mantiq yo‘qolganini, hamma narsa teskari bo‘lib ketganini anglatadi. Buni biz ushbu parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

– Otamning ismi «D» bilan emas, «J» bilan boshlanadi. Jabbor aka, deydi otamni.

– E, odamni ahmoq qilma san bala, – dedi xotin rosmana jahli chiqib. – Axir ruschada ism boshida «J»dan avval «D» harfi qo‘yiladi-da, balam... «Djabbar» bo‘ladi-da...

Avvaliga indamadim. Bu xotin folni ruscha ochar ekan-da, deb o‘yladim.

Ko‘rib turganimizdek, folbinning harf o‘yini o‘ynashi “J” harfini ruscha “Dj” deb tushuntirishi uning naqadar savodsiz va firibgarligini ko‘rsatib turibdi. Bunisi yetmaganday o‘z aybini tan olish o‘rniga, aybni mijozning ixlosi yo‘qligiga ag‘daradi. Shu yo‘l bilan o‘zining aybini yopishga harakat qilayapti. Bunisi yetmaganday puling ham kerakmas, xonadan chiqib ket deya jahl ham qiladi:

– Nimaga tirjayasan, balam? – dedi folbin.

– Folni o‘zbekcha ochsangiz bo‘lmaydi, xola? – dedim ko‘zlarimni uqalab.

– Man maktabda ruscha o‘qiganman, – dedi xotin jahli chiqib. – Bor, ket, ustimdan kulmay, haqing ham kerak emas! Folga ixlosi yo‘qlarga fol ko‘rmayman!

Hikoyada psixologik manipulyatsiya kuchli ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. Hikoyadagi ayolni folbinning “bir oyda uy olasiz” degan gapi harakatga keltirgan, ya’ni natija folbinning karomati emas, o‘z uyini sotib, qarz olib, qarindoshlar ko‘magida uy ola turib, shunda ham folbinni ko‘klarga ko‘tarib, og‘zidan bol tomib maqtashi mantiqqa ziddir. Bu holat jamiyatdagi aqliy oqsashga ishora qilmoqda.

U qo‘llaringa chiziq chizib, “Singlim, sizga nuqta tushyapti. Siz bir oy deganda kattagina hovli-joyli bo‘lasiz. Faqat shu kelayotgan oyda uni olib, baxt qushingizni ushlab qolsangiz qoldingiz – bo‘lmasa, sizda bunday imkon boshqa bo‘lmaydi” deb aytdi. Xursand bo‘lib ketdim. Uyga borib, dadasiga maslahat soldim. Biram yo‘limiz ochildiki, dadamiz darrov rozi bo‘ldilar. Eski shahardagi ikki xonali uyimizni sotdik. Qurib ketsin, temir bo‘lsa, topiladi-da, deb mashinamizni ham pulladik. Hovliga ozroq yetmay qoldi. Oradan yigirma kuncha o‘tib ketdi. Noiloj bo‘ldik. Keyin qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘dan ham anchagina qarz ko‘tardik.

Hikoyada “ismida falon harf bor odamni qidirasizlar” degan jumla orqali, jamiyatda asossiz shubha, yaqinlar o‘rtasidagi nizo va bir – biriga ishonchsizlik urug‘ining sochilishiga sabab bo‘ladi. Folbinning so‘zlariga ishongan insonlar ham

uning aytgan soʻzidan chiqmay, arzimagan narsalar uchun ham fol ochtiradi. Menimcha, bu vaziyat insonni manqurt, oʻzining shaxsiy fikrining shakllanishiga toʻsiq boʻladi.

Aytishlaricha, oʻsha folbin rostdan ham balogina ekan. Amakimizning ishi ortiga ketishiga ismi «Q» harfli (ehtimol, ruschadan kelganda «K» harflidir?) shaxs sabab boʻlgan ekan. Qoʻy va qoʻchqorlarni ham, hoʻkizni ham oʻgʻirlaganlarning ismi katta ehtimol bilan «B», «M», «I» yoki «T» harfi bilan boshlanishini aytganmish.

Folbining uyi – bu baxt ulashiladigan joy emas, balki gʻam – tashvishini koʻtarib kelgan, chorasizlikdan ruhan “musofir” boʻlib qolgan insonlar toʻplanadigan makon. Inson oʻz muammosi sababini tashqaridan (boshqalarning ismidagi harfdan) qidirsam, u maʼnaviy gʻurbatga mahkumdir. Bu yerda odamlar oʻz aqllarini folbining izmiga topshirib qoʻyadilar, bu esa katta maʼnaviy qashshoqlikdir.

Hikoya oʻziga xos uslubda yozilgan. Jasur Kengboyev hikoyalarida ham “chiroqchi” shevasi, qishloq hayoti keng yoritilgan. Hikoyalarida qahramonlar nutqidagi xalqchilik, koʻproq soʻz qoʻllash uslubi oʻquvchining diqqatini tortadi:

Melisama-melisa yurib, tinkamiz quridi. Bu jigʻildoningga oʻt tushgur melisa deganiyam yuhudan beri ekan, ularga ish tushmasin ekan. Oʻzingiz aybdorsiz, yanga, deydi. Mol saqlagan odam avval istehkomni baquvvat qurishi kerakmish. Hey urgildim, uyimni oʻgʻri ursa, senga ishonib borsam, kelib-kelib men manglayi qora jabrdiydaga nasihat oʻqiysanmi deb urishdim.

Xulosa qilib aytganda, Jasur Kengboyevning “Gʻurbatxona” hikoyasi zamonaviy oʻzbek hikoyachiligining munosib namunalaridan biri boʻlib, u kitobxonni mulohazaga chorlaydi. Muallif badiiy tahlil orqali inson qalbi har qanday tashqi gʻurbatdan ustun ekanini, ammo eʼtiborsizlik uni “gʻurbatxona”ga aylantirishi mumkinligini mahorat bilan koʻrsatib bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Xurshid Davron kutubxonasi” elektron portali (kh-davron.uz), 2014-yil 18-noyabr.
2. Jasur kengboyev. Gʻurbatxona (hikoya). “Yoshlik” jurnali, 2014 yil, 9 – son
3. <https://ziyouz.uz>